



TA'LIM TASHKILOTLARIDA MAXSUS DAVLAT AKKREDITATSIYASI JARAYONLARI

Mundarija

I. KIRISH.....	2
1.1. Tahlilning maqsadi, qamrovi va dolzarbligi	2
1.2. Metodologiya	2
II. MAXSUS DAVLAT AKKREDITATSIYASINING HUQUQIY VA INSTITUTIONAL ASOSLARI	4
2.1. Milliy agentlikning vakolatlari va vazifalari	4
2.2. Ta'lim tashkilotlari uchun belgilangan talablar	4
III. MAXSUS DAVLAT AKKREDITATSIYASI JARAYONINING UMUMIY TAVSIFI	6
3.1. Maxsus davlat akkreditatsiyasini o'tkazish bosqichlari	6
3.2. Arizani rasmiylashtirish	6
3.3. Ichki (o'zini o'zi) baholash hisoboti	7
3.4. Tashqi ekspert baholash jarayoni	7
3.5. Akkreditatsiya komissiyasi qarorlari	9
IV. TA'LIM DASTURLARINI MAXSUS DAVLAT AKKREDITATSIYASI-DAN O'TKAZISH HOLATI	11
4.1. Ariza topshirgan ta'lim tashkilotlari va dasturlar soni	11
4.2. Ta'lim darajalari bo'yicha tahlillar.....	13
V. TA'LIM TURLARI BO'YICHA MAXSUS DAVLAT AKKREDITATSIYASI HOLATI.....	15
5.1. Oliy ta'lim dasturlari bo'yicha maxsus davlat akkreditatsiyasi tahlili	15
5.2. Oliy ta'limdan keyingi ta'lim dasturlari bo'yicha maxsus davlat akkreditatsiyasi tahlili	18
5.3. Malaka oshirish va qayta tayyorlash ta'lim dasturlari bo'yicha maxsus davlat akkreditatsiyasi tahlili.....	19
5.4. O'rta maxsus va kasbiy ta'lim dasturlari bo'yicha maxsus davlat akkreditatsiyasi tahlili	20
VI. ASOSIY XULOSALAR VA YAKUNIY QISM	22
FOYDALANILGAN MANBALAR.....	23
<i>Ilova.....</i>	<i>24</i>
MUALLIFLAR TO'G'RISIDA MA'LUMOT	28

I. KIRISH

1.1. Tahlilning maqsadi, qamrovi va dolzarbligi

Mazkur axborot-tahliliy material O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Ta'lim sifatini ta'minlash milliy agentligi (keyingi o'rinlarda – Milliy agentlik) tomonidan ta'lim tashkilotlarini **maxsus davlat akkreditatsiyasidan** o'tkazish jarayonining joriy holatini yoritish, erishilgan natijalarni umumlashtirish hamda tizimdagi asosiy tendensiya, muammo va istiqbollarni aniqlash maqsadida tayyorlandi.

Tahlilning asosiy maqsadi – maxsus davlat akkreditatsiyasi mexanizmi orqali ta'lim dasturlari sifatini oldindan baholash tizimining samaradorligini o'rganish, ta'lim tashkilotlarining ushbu jarayonga tayyorgarlik darajasini baholash va davlat siyosati doirasida qabul qilinishi lozim bo'lgan qarorlar uchun dalillarga asoslangan asos yaratishdan iborat.

Jarayonning **strategik ahamiyati** quyidagi jihatlarda namoyon bo'ladi:

dastur o'quv jarayoni boshlanishidan avval baholanganligi sababli, **sifatsiz ta'lim xizmatlari bozorga chiqishining oldi olinadi** va **talabalar dastlabki bosqichdanoq himoyalani**adi;

maxsus davlat akkreditatsiyasidan **o'tmagan ta'lim dasturlar bo'yicha ta'lim oluvchilarni qabul qilish taqiqlanadi**, bu esa har bir dasturning davlat ta'lim standartlari va mehnat bozori talablariga muvofiqligini ta'minlaydi;

maxsus akkreditatsiyadan o'tmasdan qabul jarayonini amalga oshirish **litsenziya talab va shartlarini qo'pol buzish** deb baholanadi va litsenziyaning bekor qilinishiga asos bo'ladi;

milliy akkreditatsiya standartlarining xalqaro talablar bilan uyg'unlashtirilishi O'zbekiston ta'lim tizimining **global maydonda tan olinishiga** zamin yaratadi.


1.2. Metodologiya

Normativ-huquqiy asos sifatida O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 5-maydagi PF-76-son Farmoni hamda Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 6-avgustdagi 498-son qarori bilan tasdiqlangan O'rta maxsus, kasbiy, oliy va oliy ta'limdan keyingi ta'lim, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tashkilotlarini kompleks hamda maxsus davlat

akkreditatsiyasidan o'tkazish tartibi to'g'risida nizom (keyingi o'rinlarda – Nizom) inobatga olindi.

Asosiy ma'lumot manbai – Milliy agentlikning davlat akkreditatsiyasi bo'yicha "Akkreditatsiya" platformasi hamda davlat akkreditatsiyasi reestri. Tahlilga 2026-yil 9-iyul holatiga shakllangan ariza va baholash jarayonlari ma'lumotlari asos qilib olindi. O'lchov birligi ta'lim tashkiloti, ta'lim dasturi (ta) va foiz.

Ma'lumotlar 5 ta ta'lim turi **oliy ta'lim, oliy ta'limdan keyingi ta'lim, kasbiy ta'lim, o'rta maxsus ta'lim** hamda **kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish** ta'lim tashkilotlari kesimida guruhlandi. Har bir ta'lim turi bo'yicha tashkilot va dasturlar soni, shuningdek, akkreditatsiya bosqichlari kesimidagi taqsimot hisoblandi.



1-rasm. Maxsus davlat akkreditatsiyasidan o'tkazilayotgan ta'lim dasturlarining ta'lim turlari kesimidagi taqsimoti.

Manba: Milliy agentlikning "Akkreditatsiya" platformasi ma'lumotlari asosida, 2026-yil 9-iyul holatiga.

Izoh: Ta'lim turlari kesimida ta'lim tashkilotlari soni jami **89 tani** tashkil etadi. Bunda **5 ta** oliy ta'lim tashkiloti uch xil ta'lim turi bo'yicha ariza taqdim etganligi sababli takroran hisobga olingan. Takroriy hisoblar chiqarib tashlanganda, ta'lim tashkilotlarining umumiy soni **84 tani** tashkil etadi.

II. MAXSUS DAVLAT AKKREDITATSIYASINING HUQUQIY VA INSTITUTIONAL ASOSLARI

2.1. Milliy agentlikning vakolatlari va vazifalari

Milliy agentlik o'rta maxsus, kasbiy, oliy va oliy ta'limdan keyingi ta'lim, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va malaka oshirish sohalarida **tashqi sifat nazoratini amalga oshiruvchi maxsus vakolatli davlat organi** hisoblanadi. Milliy agentlik o'z faoliyatida bevosita O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga hisobdor.

Milliy agentlikning **asosiy faoliyat yo'nalishlari** quyidagilardan iborat:

ta'lim tashkilotlarini **kompleks va maxsus davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish** hamda **xavfni tahlil qilish** asosida navbatdan tashqari o'rganish;

ta'lim tashkilotlarida sifat madaniyatini shakllantirish, **ichki sifat nazorati mezonlari** va **tartiblarini** takomillashtirish bo'yicha **uslubiy tavsiyalar berish**;

baholash mezonlari va usullarini **xalqaro standartlar** va **ilg'or xorijiy tajribalar asosida ishlab chiqish**;

ta'lim tashkilotlarining **milliy reytingini yuritish**, **umummilliy ish beruvchilar** va **talabalar so'rovnomalarini o'tkazish**;

faoliyat ochiqqligini ta'minlash maqsadida **jamoatchilik ishtirokida yillik hisobotlarni e'lon qilish**;

sifatni baholash sohasidagi **xalqaro tashkilotlarga a'zo bo'lish** va **milliy tizimning xalqaro tan olinishini ta'minlash**.

2.2. Ta'lim tashkilotlari uchun belgilangan talablar

Nizomda ta'lim tashkilotlari zimmasiga bir qator majburiy talablar yuklatilgan. Ular quyidagilarni o'z ichiga oladi:

har bir ta'lim tashkiloti tarkibida **ta'lim sifatini ta'minlash bo'limi** tashkil etiladi (oliy ta'lim tashkilotlarida kamida 3 nafar, o'rta maxsus va kasbiy ta'lim tashkilotlarida kamida 1 nafar xodimdan iborat);

ta'lim tashkiloti har bir baholash yo'nalishi va mezoni bo'yicha **o'zini o'zi baholash hisobotini** tayyorlab, tashqi baholash boshlanishidan **kamida bir oy oldin** Milliy agentlikka taqdim etadi;

kadrlar tayyorlash yo'lga qo'yilgan ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklar **milliy** yoki **xalqaro klassifikatorda** mavjud bo'lishi lozim;


nufuzli xalqaro reyting tashkilotlarining **sohaviy ro'yxatida birinchi 300 talikdan o'rin olgan** yoki Milliy agentlikning **O'zbekiston Respublikasida tan olinadigan xalqaro, xorijiy va nodavlat akkreditatsiya tashkilotlari reestriga** kiritilgan tashkilotlar tomonidan akkreditatsiyadan o'tkazilgan ta'lim dasturlari **tegishli mezonlar bo'yicha «ijobiy baholangan»** deb hisoblanadi.

III. MAXSUS DAVLAT AKKREDITATSIYASI JARAYONINING UMUMIY TAVSIFI

3.1. Maxsus davlat akkreditatsiyasini o'tkazish bosqichlari

Maxsus davlat akkreditatsiyasi – bu kadrlar tayyorlash yo'lga qo'yilayotgan ta'lim dasturlari bo'yicha **o'quv jarayoni boshlanishidan oldin o'tkaziladigan tashqi sifat nazorati shakli** bo'lib, maxsus akkreditatsiya aynan **yangi ochilayotgan** yoki **hali bitiruvchisi bo'lmagan** har bir ta'lim dasturini alohida baholaydi.

Maxsus davlat akkreditatsiyasi jarayoni bir-biri bilan uzviy bog'liq **4 asosiy bosqichda** amalga oshiriladi va har bir bosqich uchun **aniq muddatlar** belgilangan. Umumiy jarayon **2-rasmda** keltirilgan.



2-rasm. Maxsus davlat akkreditatsiyasi jarayonining umumiy bosqichlari.

Manba: Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 6-avgustdagi 498-son qarori bilan tasdiqlangan O'rta maxsus, kasbiy, oliy va oliy ta'limdan keyingi ta'lim, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tashkilotlarini kompleks hamda maxsus davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish tartibi to'g'risida nizom.

3.2. Arizani rasmiylashtirish

Maxsus davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish uchun arizalar **kelgusi o'quv yilida faoliyatni boshlash uchun har yili 1-oktyabrdan keyingi**

yilning 31-yanvariga qadar Milliy agentlikning “Akkreditatsiya” platformasi orqali elektron shaklda qabul qilinadi.

Belgilangan muddatlardan tashqari vaqtda akkreditatsiya **tashkilotning murojaatiga ko‘ra, oshirilgan to‘lov asosida** amalga oshiriladi.

Ariza va hujjatlar to‘liq taqdim etilgach, Milliy agentlik ularni **15 ish kunida** ko‘rib chiqadi. Ariza qabul qilinganidan so‘ng **10 ish kuni** ichida Milliy agentlik va ta‘lim tashkiloti o‘rtasida **ikki tomonlama shartnoma tuziladi**, so‘ngra tashqi baholash **reja-jadvali** tasdiqlanadi va Milliy agentlikning **rasmiy veb-saytida e‘lon qilinadi**.

3.3. Ichki (o‘zini o‘zi) baholash hisoboti

Tashqi baholashdan avval ta‘lim tashkiloti ichki (o‘zini o‘zi) baholash o‘tkazadi. Ichki baholash hisoboti tashqi baholash boshlanishidan **kamida bir oy oldin** Milliy agentlikka taqdim etiladi.

Ichki baholashning vazifalari sifatni ta‘minlash davriyligiini to‘liq joriy etish, tashkilotning sifatga bo‘lgan javobgarligini oshirish, ta‘lim xizmatlarini tizimli tahlil qilish hamda tashkilotni tashqi baholashga tayyorlashdan iborat.

Ichki baholash hisoboti ta‘lim tashkiloti to‘g‘risida umumiy ma‘lumotni, har bir baholash yo‘nalishi va mezoniga muvofiqlik tahlilini, aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish bo‘yicha harakatlar rejasini hamda asoslantiruvchi hujjatlarni o‘z ichiga oladi.

3.4. Tashqi ekspert baholash jarayoni

Tashqi baholash uchun Milliy agentlik ekspert komissiyalarini tashkil etadi.¹ Komissiyalar ta‘lim tashkilotlarining pedagog va rahbar xodimlari, ilmiy-tadqiqot institutlari olimlari, ijro etuvchi hokimiyat organlari xodimlari, ishlab chiqarish tashkilotlari mutaxassislari, nodavlat notijorat tashkilotlar vakillari va talabalar orasidan shakllantiriladi. Tarkibga xorijiy ekspertlar ham jalb etiladi.


Hisobot davrida har bir ta‘lim dasturi uchun **1 nafar** mahalliy va **1 nafar xorijiy ekspert** jalb etildi.

Ta‘lim dasturi maxsus davlat akkreditatsiyasidan ekspert komissiyasi tomonidan joyiga chiqqan holda, har bir dastur bo‘yicha **5 ish kuni muddatda**

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Ta‘lim sifatini ta‘minlash milliy agentligi. Davlat akkreditatsiyasi tizimida ekspertlar korpusi yuzasidan ma‘lumot. 2026. B. 13.
URL: https://nqaae.uz/uploads/structure_inside/0e5d7e8488abce48055931f3b535257e.pdf (03.08.2026).

baholanadi. Baholash natijalari asosida **15 ish kunida** dastlabki hisobot tayyorlanadi va ta'lim tashkiloti **3 ish kunida** e'tiroz bildirishi mumkin, so'ng yakuniy hisobot shakllantiriladi.

Baholash mezonlari «**muvofoq**», «**qisman muvofoq**» va «**muvofoq emas**» shkalasi bo'yicha amalga oshiriladi. Ta'lim dasturi ijobiy baholanishi uchun barcha umumiy mezonlar "muvofoq" deb topilishi, ko'pi bilan ikkitasi "qisman muvofoq" bo'lishi va "muvofoq emas" deb baholangan mezonlar mavjud bo'lmasligi talab etiladi.



3-rasm. Maxsus davlat akkreditatsiyasining baholash yo'nalishlari.

Manba: Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 6-avgustdagi 498-son qarori bilan tasdiqlangan O'rta maxsus, kasbiy, oliy va oliy ta'limdan keyingi ta'lim, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tashkilotlarini kompleks hamda maxsus davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish tartibi to'g'risida nizom.

Ekspert komissiyasi joyiga chiqqan holda **ta'lim jarayoni, moddiy-texnik baza, pedagogik salohiyat va yaratilgan shart-sharoitlarni** o'rganadi hamda o'rganish natijalari asosida dastlabki va yakuniy ekspert xulosalarini shakllantiradi.

3.5. Akkreditatsiya komissiyasi qarorlari

Yakuniy qaror Milliy agentlikda doimiy faoliyat yurituvchi **Akkreditatsiya komissiyasi** tomonidan qabul qilinadi.²



4-rasm. Maxsus davlat akkreditatsiyasi bosqichlari va normativ muddatlari.

Manba: Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 6-avgustdagi 498-son qarori bilan tasdiqlangan O'rta maxsus, kasbiy, oliy va oliy ta'limdan keyingi ta'lim, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tashkilotlarini kompleks hamda maxsus davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish tartibi to'g'risida nizom.

² O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Ta'lim sifatini ta'minlash milliy agentligi. Akkreditatsiya komissiyasi. URL: <https://nqaae.uz/uz/accreditation-tasks> (03.08.2026).

Akkreditatsiya komissiyasi tarkibiga **vazirlik va idora mutaxassislari, ish beruvchilar, ta'lim oluvchilar vakillari** hamda **xorijiy ekspertlar** jalb etiladi.


Akkreditatsiya komissiyasi ekspert komissiyasining yakuniy hisobotini **bir oy muddatda** ko'rib chiqadi va a'zolarning uchdan ikki qismi ishtirok etganda qaror kuchga ega bo'ladi.

Har bir baholash yo'nalishi «**muvofig**» deb e'tirof etilganda dastur «**davlat akkreditatsiyasidan o'tdi**», aks holda «**davlat akkreditatsiyasidan o'tmadi**» deb qaror qabul qilinadi.

Ijobiy qaror qabul qilinganda ta'lim tashkilotiga **bir hafta ichida** maxsus davlat akkreditatsiyasi **sertifikati beriladi** va dastur bo'yicha kadrlar tayyorlashga ruxsat etiladi.

IV. TA'LIM DASTURLARINI MAXSUS DAVLAT AKKREDITATSIYASI-DAN O'TKAZISH HOLATI

Milliy agentlikka **474 ta ta'lim dasturini** maxsus davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish bo'yicha arizalar kelib tushgan bo'lib, hisobot davrida ularning **43 foiz** (203 ta) akkreditatsiyadan muvaffaqiyatli o'tgan, **54 foiz** (257 ta) baholash jarayonida, **3 foiz** (14 ta) esa "muvofiq emas" deb topilgan.



5-rasm. Maxsus davlat akkreditatsiyasi natijalari bo'yicha ta'lim dasturlarining taqsimoti.


Manba: Milliy agentlikning "Akkreditatsiya" platformasi ma'lumotlari asosida, 2026-yil 9-iyul holatiga.

Yakuniy qaror chiqarilgan **218 ta** ta'lim dasturi (o'tgan va o'tmagan) orasida ijobiy xulosa ulushi **93,6 foizni** tashkil etadi.

474 ta dasturning **54 foizi** hali baholash jarayonida bo'lib, akkreditatsiyadan o'tgan dasturlar ulushi **43 foizni** tashkil etmoqda. Bu baholash jarayonlarini belgilangan muddatlarda yakunlash hamda yakuniy qarorlarni qabul qilish sur'atini oshirishga qaratilgan tashkiliy mexanizmlarni kuchaytirish zarurligini ko'rsatadi.

4.1. Ariza topshirgan ta'lim tashkilotlari va dasturlar soni

Maxsus davlat akkreditatsiyasi jarayoniga **84 ta ta'lim tashkiloti** **474 ta ta'lim dasturi** bo'yicha ariza topshirgan bo'lib, shundan **oliy ta'lim 420 ta**, **kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish 25 ta**, **oliy ta'limdan keyingi ta'lim 18 ta**, **kasbiy ta'lim 6 ta** va **o'rta maxsus ta'lim 5 ta** ta'lim dasturlariga to'g'ri keladi.



6-rasm. Ta'lim dasturlarining ta'lim turlari kesimidagi taqsimoti.

Manba: Milliy agentlikning "Akkreditatsiya" platformasi ma'lumotlari asosida, 2026-yil 9-iyul holatiga.


Izoh: Ta'lim turlari kesimida ta'lim tashkilotlari soni jami **89 tani** tashkil etadi. Bunda **5 ta** oliy ta'lim tashkiloti uch xil ta'lim turi bo'yicha ariza taqdim etganligi sababli takroran hisobga olingan. Takroriy hisoblar chiqarib tashlanganda, ta'lim tashkilotlarining umumiy soni **84 tani** tashkil etadi.

Tahlilga ko'ra, **oliy ta'lim 420 ta dastur** (umumiy hajmning 88,6 foizini) bilan yetakchilik qiladi va ulardan **196 ta o'tgan, 212 ta jarayonda, 12 ta o'tmagan** ta'lim dasturlarni tashkil qiladi.

Maxsus davlat akkreditatsiyasiga kiritilgan dasturlarning asosiy qismi (88,6 foiz) oliy ta'lim tizimiga to'g'ri kelmoqda. Bu akkreditatsiya jarayonida baholash yuklamasining yuqori darajada markazlashganini ko'rsatib, ekspertlar faoliyati va baholash muddatlarini ta'lim turlari kesimida muvozanatli rejalashtirish hamda qamrov darajasi past bo'lgan ta'lim turlari bo'yicha akkreditatsiya ishlarini bosqichma-bosqich kengaytirishni taqozo etadi.

4.2. Ta'lim darajalari bo'yicha tahlillar

Ta'lim darajalari kesimida dasturlarning taqsimoti kadrlar tayyorlash bosqichlarining qamrovini ko'rsatadi. Eng ko'p dastur bakalavriat darajasiga to'g'ri keladi.



7-rasm. Ta'lim dasturlarining ta'lim darajalari kesimidagi taqsimoti.


Manba: Milliy agentlikning "Akkreditatsiya" platformasi ma'lumotlari asosida, 2026-yil 9-iyul holatiga.

Maxsus davlat akkreditatsiyasiga kiritilgan **474 ta** ta'lim dasturining **301 tasi** (63,5 foiz) **bakalavriat** bosqichiga to'g'ri keladi. Bu ko'rsatkich **magistratura** dasturlari (119 ta yoki 25,1 foiz)dan qariyb **2,5 baravar**, **doktorantura** dasturlari (18 ta)dan esa **17 baravar** ko'pdir. **Kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish** (25 ta), **kasbiy ta'lim** (6 ta) hamda **o'rta maxsus ta'lim** (5 ta) dasturlari ulushi jami **7,7 foizni** tashkil etadi.

Demak, maxsus davlat akkreditatsiyasi doirasida baholashning asosiy qismi bakalavriat dasturlariga to'g'ri kelgan bo'lib, qolgan ta'lim darajalari nisbatan cheklangan hajmda qamrab olingan.

Bakalavriat dasturlarining umumiy ulushi **63,5 foizni** tashkil etishi maxsus davlat akkreditatsiyasida baholash yuklamasi asosan ushbu ta'lim darajasida shakllanganini ko'rsatadi. Bu akkreditatsiya jarayonlarini rejalashtirishda ta'lim darajalari bo'yicha mutanosib yondashuvni ta'minlash

hamda magistratura, doktorantura va boshqa ta'lim darajalarida baholash qamrovini kengaytirishga alohida e'tibor qaratishni talab etadi.



8-rasm. Ta'lim dasturlarining ta'lim darajalari kesimidagi taqsimoti va holati.

Manba: Milliy agentlikning "Akkreditatsiya" platformasi ma'lumotlari asosida, 2026-yil 9-iyul holatiga.


Ta'lim darajalari kesimida maxsus davlat akkreditatsiyasi natijalari turlicha shakllangan. **Bakalavriat** dasturlari soni bo'yicha ustunlik qilib (301 ta), ularning qariyb yarmi (141 ta) akkreditatsiyadan o'tgan, **154 tasi** baholash jarayonida, **6 tasi** esa akkreditatsiyadan o'tmagan. **Magistraturada** ham o'xshash holat kuzatilib, **119 ta** dasturning **47 tasi** akkreditatsiyadan o'tgan, **68 tasi** baholash jarayonida va **4 tasi** o'tmagan. **Doktoranturada** esa baholash jarayonidagi dasturlar ulushi yuqori (12 ta), akkreditatsiyadan o'tmagan dasturlar ham mavjud (2 ta). Shu bilan birga, malaka oshirish va qayta tayyorlash (25 ta) hamda kasbiy ta'lim (6 ta) dasturlarining barchasi hali baholash bosqichida bo'lib, o'rta maxsus ta'limdagi **5 ta** dasturdan **3 tasi** akkreditatsiyadan o'tgan.

Maxsus davlat akkreditatsiyasi natijalari ta'lim darajalari bo'yicha notekis taqsimlangan bo'lib, baholash yuklamasining qariyb **90 foizi** bakalavriat va magistratura dasturlariga to'g'ri keladi. Bu qamrovi past bo'lgan ta'lim darajalari bo'yicha akkreditatsiya ishlarini bosqichma-bosqich kengaytirish zarurligini ko'rsatadi.

V. TA'LIM TURLARI BO'YICHA MAXSUS DAVLAT AKKREDITATSIYASI HOLATI

5.1. Oliy ta'lim dasturlari bo'yicha maxsus davlat akkreditatsiyasi tahlili

Ta'lim shakllari kesimida kunduzgi ta'lim yaqqol ustunlik qiladi. Bu O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 5-maydagi PF-76-son Farmoniga muvofiq **2025/2026 o'quv yilidan** boshlab sirtqi ta'lim shakliga qabulning tugatilishi hamda oliy ta'lim tashkilotlarining muqobil ta'lim shakllari bo'yicha umumiy qabul kvotasini kunduzgi ta'lim shakli qabul natijasining **50 foizidan** oshirmaslik tartibiga aksariyat ta'lim tashkilotlari tomonidan amal qilinayotganligini bildiradi.



9-rasm. Ta'lim dasturlarining ta'lim shakllari kesimidagi maxsus davlat akkreditatsiyasi natijalari.


Manba: Milliy agentlikning "Akkreditatsiya" platformasi ma'lumotlari asosida, 2026-yil 9-iyul holatiga.

Shuningdek, akkreditatsiya natijalari muqobil ta'lim shakllari bo'yicha ham ta'lim sifatini ta'minlash mexanizmlari shakllanib borayotganligini ko'rsatadi.

Xususan, **masofaviy** ta'lim dasturlarining ulushi **9 foizni** tashkil etib, mazkur yo'nalishda ham ta'lim sifatini ta'minlash bo'yicha belgilangan talablarga muvofiq tashkil etilgan dasturlar soni ortib borayotganligini anglatadi. Ayni

paytda kechki va ikkinchi oliy ta'lim dasturlarining ulushi nisbatan kam bo'lib, bu muqobil ta'lim shakllarini davlat tomonidan belgilangan tartib asosida maqbul darajada saqlash siyosati bilan uyg'un hisoblanadi.

Dasturlar **10 ta bilim sohasini** qamrab oladi. Eng ko'p dastur **Biznes, boshqaruv va huquq** (85 ta), **Muhandislik, ishlov berish va qurilish sohalari** (70 ta) va **San'at va gumanitar fanlar** (58 ta) sohalariga to'g'ri keladi. Bu biznes-boshqaruv, muhandislik, san'at va gumanitar fanlar sohalarida kadrlarga bo'lgan yuqori talab bilan izohlanadi.



10-rasm. Maxsus davlat akkreditatsiyasi natijalari bo'yicha ta'lim dasturlarining bilim sohalari kesimidagi taqsimoti.

Manba: Milliy agentlikning "Akkreditatsiya" platformasi ma'lumotlari asosida, 2026-yil 9-iyul holatiga.

Ta'lim shakllari kesimida maxsus davlat akkreditatsiyasi asosan **kunduzgi va kechki ta'lim** dasturlarini qamrab olgan bo'lib, umumiy ta'lim shakllarining ulushi **11,4 foizni** tashkil etadi. Bu akkreditatsiya jarayonini zamonaviy ta'lim shakllari rivojlanish tendensiyalariga mos ravishda


diversifikatsiya qilish va baholash qamrovini kengaytirish maqsadga muvofiqligini ko'rsatadi.

Maxsus davlat akkreditatsiyasiga jalb qilingan oliy ta'lim dasturlari **10 ta bilim sohasini** qamrab olgan bo'lib, ularning qariyb **uchdan ikki qismi** (64,3 foiz) **4 ta yirik soha** hissasiga to'g'ri keladi.

Eng katta ulush **biznes, boshqaruv va huquq** (85 ta) hamda **muhandislik, ishlov berish va qurilish** sohalari (70 ta)ga to'g'ri kelsa, **ijtimoiy fanlar, jurnalistika va axborot yo'nalishida atigi 15 ta** dastur baholashga jalb qilingan.

Shu bilan birga, biznes, boshqaruv va huquq sohasida akkreditatsiyadan o'tgan dasturlar soni baholash jarayonidagi dasturlardan ko'p bo'lsa, muhandislik, san'at va gumanitar hamda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohalarida baholash bosqichidagi dasturlar ustunlik qiladi. Bu esa bilim sohalari kesimida maxsus davlat akkreditatsiyasi natijalari bir xil shakllanmayotganini ko'rsatadi.

Bu baholash yuklamasining ayrim sohalarda yuqori darajada jamlanganini ko'rsatib, ekspertlar tarkibini shakllantirish va baholash rejalarini bilim sohalari kesimida ustuvorliklar asosida tashkil etish, shuningdek, qolgan sohalarda ham akkreditatsiya qamrovini mutanosib rivojlantirish zarurligini anglatadi.



11-rasm. Maxsus davlat akkreditatsiyasiga jalb qilingan ta'lim dasturlarining mulkchilik shakli kesimidagi taqsimoti.


Manba: Milliy agentlikning "Akkreditatsiya" platformasi ma'lumotlari asosida, 2026-yil 9-iyul holatiga.

Mulkchilik shakli kesimida davlat oliy ta'lim tashkilotlari yetakchilik qiladi, maxsus davlat akkreditatsiyasiga ariza berilgan **420 ta** ta'lim dasturidan **330 ta davlat** (78,6 foiz), **78 ta nodavlat** (18,5 foiz) va **12 ta xorijiy** (2,9 foiz) oliy ta'lim tashkilotlarining ta'lim dasturlariga to'g'ri keladi.

Maxsus davlat akkreditatsiyasiga jalb qilingan dasturlarning deyarli **to'rt dan besh qismi** davlat oliy ta'lim muassasalari hissasiga to'g'ri keladi. Bu maxsus davlat akkreditatsiyasi qamrovi asosan davlat sektorida shakllanganini ko'rsatadi. Nodavlat va xorijiy oliy ta'lim muassasalari ishtirokini kengaytirish akkreditatsiya natijalarining reprezentativligini oshirishga xizmat qiladi.

5.2. Oliy ta'limdan keyingi ta'lim dasturlari bo'yicha maxsus davlat akkreditatsiyasi tahlili


Oliy ta'limdan keyingi ta'lim dasturlari **7 ta fan tarmog'ini** qamrab oladi. Eng ko'p dastur **pedagogika** fanlariga (6 ta), **iqtisodiyot** fanlariga (4 ta) va **filologiya** fanlariga (3 ta) to'g'ri keladi.



12-rasm. Maxsus davlat akkreditatsiyasi natijalari bo'yicha oliy ta'limdan keyingi ta'lim dasturlarining fan tarmoqlari kesimidagi taqsimoti.

Manba: Milliy agentlikning "Akkreditatsiya" elektron platformasi ma'lumotlari asosida, 2026-yil 9-iyul holatiga.

Shuningdek, **tibbiyot** fanlari bo'yicha **2 ta**, **falsafa** fanlari, **geografiya** fanlari hamda **kimyo** fanlari bo'yicha **1 tadan** dastur mavjud. Bu holat oliy ta'limdan keyingi ta'limda, avvalo, pedagogika, iqtisodiyot va filologiya ixtisosliklarida ilmiy-pedagogik kadrlarga ehtiyoj yuqori ekanini ko'rsatadi.



13-rasm. Oliy ta'limdan keyingi ta'lim dasturlari bo'yicha maxsus davlat akkreditatsiyasi natijalari.

Manba: Milliy agentlikning "Akkreditatsiya" platformasi ma'lumotlari asosida, 2026-yil 9-iyul holatiga.

Dasturlar akkreditatsiya holati kesimida jami **18 ta** ta'lim dasturining **11 tasi** (61,1 foiz) hozirda akkreditatsiya jarayonida, **5 tasi** (27,8 foiz) akkreditatsiyadan muvaffaqiyatli o'tgan, **2 tasi** (11,1 foiz) esa akkreditatsiyadan o'tmagan.

Oliy ta'limdan keyingi ta'lim dasturlari bir nechta fan tarmoqlari bo'yicha taqsimlangan bo'lsa-da, asosiy ulush pedagogika va iqtisodiyot fanlariga to'g'ri keladi. Bu akkreditatsiya jarayonida fan tarmoqlari o'rtasida muvozanatli qamrovni ta'minlash hamda kam qamrovli yo'nalishlarni bosqichma-bosqich baholashga jalb etish zarurligini anglatadi.

5.3. Malaka oshirish va qayta tayyorlash ta'lim dasturlari bo'yicha maxsus davlat akkreditatsiyasi tahlili

Malaka oshirish va qayta tayyorlash ta'lim dasturlari **5 ta** sohani qamrab oladi. Eng ko'p dastur **xizmatlar sohasiga** (14 ta, 56,0 foiz) to'g'ri keladi. Keyingi o'rinlarda ta'lim (5 ta, 20 foiz) hamda biznes, boshqaruv va huquq (4 ta, 16 foiz) sohalarida turadi. Shuningdek, ijtimoiy fanlar, jurnalistika va axborot hamda sog'liqni saqlash va ijtimoiy ta'minot sohalarida **1 tadan** dastur mavjud.

Malaka oshirish va qayta tayyorlash dasturlarining yarmidan ortig'i xizmatlar sohasiga to'g'ri keladi, qolgan dasturlar esa 4 ta soha o'rtasida taqsimlangan. Bu mazkur ta'lim turida akkreditatsiya qamrovi cheklangan sohalar bo'yicha ham bosqichma-bosqich kengaytirilishi maqsadga muvofiqligini ko'rsatadi.

Malaka oshirish va qayta tayyorlash — soha kesimida		Jami dasturlar: 25 · barchasi baholash jarayonida (100,0%)
1	Xizmatlar	14 ta
2	Ta'lim	5 ta
3	Biznes, boshqaruv va huquq	4 ta
4	Ijtimoiy fanlar, jurnalistika va axborot	1 ta
5	Sog'liqni saqlash va ijtimoiy ta'minot	1 ta
JAMI · 5 ta soha		25 dastur

14-rasm. Malaka oshirish va qayta tayyorlash dasturlarining sohalar kesimidagi taqsimoti.

Manba: Milliy agentlikning “Akkreditatsiya” platformasi ma'lumotlari asosida, 2026-yil 9-iyul holatiga.

Barcha ta'lim dasturlari maxsus davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish jarayonida, ekspertlar tomonidan baholanmoqda.

5.4. O'rta maxsus va kasbiy ta'lim dasturlari bo'yicha maxsus davlat akkreditatsiyasi tahlili

O'rta maxsus ta'lim bo'yicha jami **5 ta** ta'lim dasturi maxsus davlat akkreditatsiyasi jarayoniga qamrab olingan. Ushbu dasturlar **3 ta bilim sohasiga** to'g'ri keladi: **ijtimoiy-gumanitar** fanlar va **xorijiy filologiya** yo'nalishlarida **2 tadan** dastur, **aniq fanlar** yo'nalishida esa **1 ta** dasturni tashkil qiladi.

BILIM SOHASI	DASTUR	ULUSH	AKKREDITATSIYA HOLATI
Ijtimoiy-gumanitar fanlar	2	40%	
Xorijiy filologiya	2	40%	
Aniq fanlar	1	20%	
JAMI	5	100%	


O'tgan
 Jarayonda
 O'tmagan

15-rasm. O'rta maxsus ta'lim dasturlarining bilim sohalari kesimidagi maxsus davlat akkreditatsiyasi holati.

Manba: Milliy agentlikning “Akkreditatsiya” platformasi ma'lumotlari asosida, 2026-yil 9-iyul holatiga.

Akkreditatsiya holatiga ko'ra, jami dasturlarning **3 tasi** akkreditatsiyadan muvaffaqiyatli o'tgan, **2 tasi** esa baholash jarayonida.

O'rta maxsus ta'lim dasturlarining bilim sohalari bo'yicha taqsimoti akkreditatsiya qamrovining hozircha tor doirada shakllanganini namoyon etadi. Shu bois keyingi baholash rejalarini ishlab chiqishda sohalar kesimidagi mutanosiblikni ta'minlashga ustuvor ahamiyat berilishi maqsadga muvofiq.



16-rasm. Kasbiy ta'lim dasturlarining bilim sohalari kesimidagi maxsus davlat akkreditatsiyasi holati.

Manba: Milliy agentlikning "Akkreditatsiya" platformasi ma'lumotlari asosida, 2026-yil 9-iyul holatiga.

Kasbiy ta'lim bo'yicha jami **6 ta** ta'lim dasturi maxsus davlat akkreditatsiyasi jarayoniga qamrab olingan. Ushbu dasturlarning barchasi hozirda baholash jarayonida.

Dasturlar **3 ta bilim sohasini** qamrab oladi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasi (3 ta, 50 foiz), Muhandislik, ishlov berish va qurilish sohalari (2 ta, 33,3 foiz) hamda xizmatlar sohasi (1 ta, 16,7 foiz).

Kasbiy ta'lim dasturlarining barchasi hali baholash bosqichida bo'lgani sababli, mazkur ta'lim turi bo'yicha yakuniy xulosalarni shakllantirish uchun yetarli asos hozircha mavjud emas. Bu holat baholash ishlarining yakunlanishini keyingi tahlillarning muhim sharti sifatida belgilaydi.

VI. ASOSIY XULOSALAR VA YAKUNIY QISM

Hisobot davrida maxsus davlat akkreditatsiyasi tizimi faol shakllanish va kengayish bosqichida turibdi. Jami **474 ta ta'lim dasturi 84 ta ta'lim tashkiloti** tomonidan jarayonga jalb etilgan bo'lib, ularning **43 foizi** (203 ta) ijobiy yakuniy qaror olgan, **54 foizi** (257 ta) baholash jarayonida davom etmoqda. Yakuniy qaror chiqarilgan dasturlar orasida ijobiy xulosa ulushi **93,6 foizni** tashkil etadi.

Maxsus davlat akkreditatsiyasi ta'lim sifatini ta'minlash tizimiga bir necha yo'nalishda ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Birinchidan, dasturlar o'quv jarayoni boshlanishidan avval baholanishi sifatsiz ta'limning oldini oladi.

Ikkinchidan, ichki (o'zini o'zi) baholash talabi tashkilotlarni o'z faoliyatini tanqidiy tahlil qilishga undaydi va sifat madaniyatini shakllantiradi.

Uchinchidan, ochiq reestr va raqamli platforma jarayon shaffofligini oshiradi.

Shu bilan birga, **14 ta dasturning** salbiy baholanishi hamda ko'plab mezonlar bo'yicha «**qisman muvofiq**» xulosalar tizim haqiqiy saralovchi filtr vazifasini bajarayotganini tasdiqlaydi.

Bu talabalar manfaatlarini himoya qilish va kadrlar tayyorlash sifatini oshirishga bevosita xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN MANBALAR

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni.

URL: <https://lex.uz/docs/5013007>

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ta'lim sifatini ta'minlash va ta'lim xizmatlari ko'rsatish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2025-yil 5-maydagi PF-76-son Farmoni.

URL: <https://lex.uz/docs/7513052>

3. Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 6-avgustdagi 498-son qarori bilan tasdiqlangan O'rta maxsus, kasbiy, oliy va oliy ta'limdan keyingi ta'lim, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tashkilotlarini kompleks hamda maxsus davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish tartibi to'g'risida nizom.

URL: <https://lex.uz/docs/7671324>

4. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Ta'lim sifatini ta'minlash milliy agentligi direktorining buyruqlari: 01.12.2025-y. 3716 va 3717; 17.12.2025-y. 3726; 23.12.2025-y. 3732; 27.12.2025-y. 3737; 07.01.2026-y. 3747; 08.01.2026-y. 3748.

URL: <https://lex.uz>

5. Milliy agentlikning "Akkreditatsiya" platformasi ma'lumotlari.

URL: <https://accreditation.nqaae.uz/agency>

6. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Ta'lim sifatini ta'minlash milliy agentligi. "Davlat akkreditatsiyasi tizimida ekspertlar korpusi yuzasidan ma'lumot". 2026-yil.

URL: [https://nqaae.uz/uploads/structure inside/0e5d7e8488abce48055931f3b535257e.pdf](https://nqaae.uz/uploads/structure_inside/0e5d7e8488abce48055931f3b535257e.pdf)

7. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Ta'lim sifatini ta'minlash milliy agentligi. "Akkreditatsiya komissiyasi".

URL: <https://nqaae.uz/uz/accreditation-tasks>

Maxsus davlat akkreditatsiyasidan jalb etilgan ta'lim tashkilotlari va ta'lim dasturlari ro'yxati

Ushbu ilovada hisobot davrida maxsus davlat akkreditatsiyasi jarayoniga jalb etilgan oliy ta'lim tashkilotlari va ular tomonidan akkreditatsiyaga taqdim etilgan ta'lim dasturlari to'g'risidagi umumlashtirilgan ma'lumotlar keltirilgan. Jadvalda ta'lim tashkilotining nomi, mulkchilik shakli, taqdim etilgan ta'lim dasturlari soni hamda akkreditatsiya natijalariga ko'ra o'tgan va o'tmagan ta'lim dasturlari soni aks ettirilgan.

T/r	Ta'lim tashkiloti nomi	Mulkchilik shakli	Dastur soni	Shundan, akkreditatsiya	
				jarayonida	o'tgan/o'tmagan
x	Oliy ta'lim	x	420	212	196/12
1	Namangan davlat universiteti	Davlat	25	25	
2	Afrasiab University	Nodavlat	18	18	
3	Termiz davlat universiteti	Davlat	18	2	16
4	Buxoro davlat texnika universiteti	Davlat	17	17	
5	Oriental Universiteti	Nodavlat	17	8	8/1
6	Qarshi davlat texnika universiteti	Davlat	17	17	
7	Qarshi davlat universiteti	Davlat	15	15	
8	Xalqaro ijtimoiy innovatsiyalar universiteti	Nodavlat	14		14
9	Andijon davlat texnika instituti	Davlat	12	7	5
10	Olmaliq davlat texnika instituti	Davlat	12	1	11
11	Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti	Davlat	12	6	6
12	Namangan davlat texnika universiteti	Davlat	11	11	
13	Buxoro davlat universiteti	Davlat	10		10
14	Farg'ona davlat universiteti	Davlat	10		8/2
15	Samarqand davlat chet tillar instituti	Davlat	10	10	
16	Toshkent davlat agrar universiteti	Davlat	10		9/1
17	Toshkent shahridagi Turin politexnika universiteti	Nodavlat	9		9
18	Xalqaro Nordik universiteti	Nodavlat	9	9	
19	Shahrisabz davlat pedagogika instituti	Davlat	8		6/2

T/r	Ta'lim tashkiloti nomi	Mulkchilik shakli	Dastur soni	Shundan, akkreditatsiya	
				jarayonida	o'tgan/o'tmagan
20	Toshkent axborot texnologiyalari universiteti	Davlat	8	8	
21	Chirchiq davlat pedagogika universiteti	Davlat	7		7
22	Guliston davlat universiteti	Davlat	7		7
23	Toshkent arxitektura-qurilish universiteti	Davlat	7	7	
24	Jizzax davlat pedagogika universiteti	Davlat	6		4/2
25	Jizzax politexnika instituti	Davlat	6		5/1
26	Qo'qon davlat universiteti	Davlat	6	1	3/2
27	Toshkent davlat yuridik universiteti	Davlat	6	6	
28	Al-xorazmiy universiteti	Davlat	5		4/1
29	Nukus davlat pedagogika instituti	Davlat	5		5
30	O'zbekiston Milliy pedagogika universiteti	Davlat	5	3	2
31	Raqamli iqtisodiyot va agrotexnologiyalar universiteti	Nodavlat	5		5
32	Samarqand davlat pedagogika instituti	Davlat	5		5
33	Termiz davlat pedagogika instituti	Davlat	5		5
34	Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti Milliy tadqiqot universiteti	Davlat	5		5
35	Turkiy davlatlar xalqaro universiteti	Xorijiy	5	1	4
36	Samarqand davlat universitetining Urgut filiali	Davlat	4	2	2
37	Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti	Davlat	4	4	
38	Toshtech texnika universiteti	Davlat	4	4	
39	Amerika texnologiyalar universiteti	Xorijiy	3	3	
40	Andijon davlat chet tillari instituti	Davlat	3	3	
41	British Management University	Nodavlat	3	2	1
42	Buxoro davlat pedagogika instituti	Davlat	3	1	2
43	Central Asian Medical university	Nodavlat	3	3	
44	Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti	Davlat	3		3

T/r	Ta'lim tashkiloti nomi	Mulkchilik shakli	Dastur soni	Shundan, akkreditatsiya	
				jarayonida	o'tgan/o'tmagan
45	Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti	Davlat	3	1	2
46	Andijon davlat pedagogika instituti	Davlat	2	2	
47	Andijon davlat tibbiyot instituti	Davlat	2		2
48	Andijon davlat universiteti	Davlat	2	1	1
49	Kattaqo'rg'on davlat pedagogika instituti	Davlat	2	2	
50	Namangan davlat pedagogika instituti	Davlat	2	1	1
51	Navoiy davlat universiteti	Davlat	2		2
52	O'zbekiston milliy universitetining Jizzax filiali	Davlat	2		2
53	O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti	Davlat	2		2
54	Samarqand davlat universiteti	Davlat	2		2
55	Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti	Davlat	2		2
56	Soliq oliy maktabi	Davlat	2	2	
57	Toshkent shahridagi Puchon universiteti	Xorijiy	2	2	
58	Urganch davlat pedagogika instituti	Davlat	2		2
59	Urganch davlat universiteti	Davlat	2		2
60	Xalqaro qishloq xo'jaligi universiteti	Xorijiy	2	2	
61	Farmatsevtika texnika universiteti	Davlat	1	1	
62	O'zbekiston davlat xoreografiya akademiyasining Urganch filiali	Davlat	1	1	
63	O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti	Davlat	1	1	
64	O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti	Davlat	1		1
65	O'zbekiston respublikasi Bank-moliya akademiyasi	Davlat	1	1	
66	Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filiali	Davlat	1		1
67	Toshkent davlat tibbiyot universiteti Chirchiq filiali	Davlat	1		1
68	Toshkent davlat tibbiyot universiteti Termiz filiali	Davlat	1	1	
69	Toshkent farmatsevtika instituti	Davlat	1		1

T/r	Ta'lim tashkiloti nomi	Mulkchilik shakli	Dastur soni	Shundan, akkreditatsiya	
				jarayonida	o'tgan/o'tmagan
70	Toshkent kimyo-texnologiya instituti	Davlat	1		1
x	Oliy ta'limdan keyingi ta'lim	x	18	12	4/2
1	Urganch ranch texnologiya universiteti	Nodavlat	6		4/2
2	Namangan davlat pedagogika instituti	Davlat	4	4	
3	Oriental universiteti	Nodavlat	2	1	1
4	Raqamli iqtisodiyot va agrotexnologiyalar universiteti	Nodavlat	2	2	
5	Toshkent shahridagi Puchon universiteti	Xorijiy	2	2	
6	Milliy tibbiyot markazi	Davlat	1	1	
7	Urganch davlat tibbiyot instituti	Davlat	1	1	
x	Malaka oshirish va qayta tayyorlash	x	25	25	x
1	Xalqaro turizm akademiyasi Samarqand kampusi	Nodavlat	7	7	
2	Ilmiy salohiyat va innovatsiya akademiyasi	Nodavlat	5	5	
3	Savdo va servis yuridik shaxslarning birlashmasi	Nodavlat	4	4	
4	Soliq oliy maktabi	Davlat	4	4	
5	Bilim trans school	Nodavlat	3	3	
6	Kasbiy ta'lim agentligi huzuridagi Kasbiy ta'limni rivojlantirish instituti	Davlat	1	1	
7	Qoraqolpogiston tibbiyot instituti	Davlat	1	1	
x	Kasbiy ta'lim	x	6	6	x
1	Samarqand xalqaro kolleji	Nodavlat	6	6	
x	O'rta maxsus	x	5	2	3
1	International house lyceum	Nodavlat	2		2
2	Shahrisabz davlat pedagogika instituti huzuridagi akademik litsey	Davlat	1	1	
3	Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti International business akademik litseyi	Davlat	1		1
4	Toshkent davlat yuridik universiteti huzuridagi Qashqadaryo viloyat akademik litseyi	Davlat	1	1	

MUALLIFLAR TO'G'RISIDA MA'LUMOT

Muallif: Akromov Abdulla

Lavozimi: Oliy va oliy ta'limdan keyingi ta'lim tashkilotlari sifatini baholash guruhi bosh inspektori

Muallif: Qalandarov Muhiddin

Lavozimi: Kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tashkilotlari sifatini baholash guruhi bosh inspektori

Muallif: G'afarov Feruz

Lavozimi: O'rta maxsus va kasbiy ta'lim tashkilotlari sifatini baholash guruhi bosh inspektori.



+998 55 505 30 30



info@nqaee.uz
www.nqaee.uz



@nqaeeuz



@nqaeeuzbot